



## HOZIRGI ZAMON MAKTAB O'QUVCHILARNING TA'LIM NATIJALARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Ырысбаева Айсыга Алматовна <sup>1</sup>  
Pardayev Sherzod Mamasharipovich <sup>2</sup>  
Mixlijev Ramazon Razzoq o'g'li <sup>3</sup>

### Abstract:

*Ushbu maqolada maktab o'quvchilarning individual o'quv yutuqlarini baholashda zamonaviy texnologiyalardan biri sifatida shakllantiruvchi baholashning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari hamda baholash metod, shakl va texnikalari hamda o'quv natijalarini baholashning an'anaviy baholash tizimining afzalliklari hamda yutuqlari, shuningdek baholashga mezonli yondoshuvning amaliy ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

### Keywords:

*baho, baholash, o'quvchilarning o'quv yutuqlari, shakllantiruvchi baholash, baholash strategiyalari.*

### E-mail:

[aisyrga160209@mail.ru](mailto:aisyrga160209@mail.ru), [sherzodpardayev84@gmail.com](mailto:sherzodpardayev84@gmail.com),  
[mixlijevramazon@gmail.com](mailto:mixlijevramazon@gmail.com)

### Author information:

<sup>1</sup> Омский государственный педагогический университет

<sup>2</sup> O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o'qituvchisi.

<sup>3</sup> Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasida assistenti.





Ta'limning zamonaviy talabi – ijodkor, zamonaviy bilimga ega raqobatbardosh va malakali insonni tarbiyalashdan iborat. Bu yerda quyidagi savollar paydo bo'ladi: ta'lim jarayonida o'quvchilar orasida o'zaro bir-birini tushunish va jamoaviy munosabatlarni o'rnatib, o'quvchilarda paydo bo'ladigan xavotirlarning oldini olish va bartaraf etish, imkoniyatlarni kengaytiradigan omillar nimalardan iborat? Baholash tizimi o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir qiladimi? Ushbu savollarga bugungi kunning javobi – mezonli baholash bo'lib hisoblanadi. Sjuni inobatga olsak shakllantiruvchi baholash («formative assessment» – ingliz tilida, «formiruyushee osenivanie» - rus tilida) pedagogik texnologiya sifatida ta'lim jarayoniga 1990 yillarda G'arb mamlakatlarida, oxirgi yillarda esa MDH, jumladan O'zbekistonda ham joriy etila boshlandi.

Ilmiy muomalaga “shakllantiruvchi baholash” tushunchasi baholash faoliyati sohasi nazariyotchisi, avstraliyalik faylasuf olim M.Skriven tomonidan olib kirilgan bo'lib, bugungi kungacha tadqiqotchilar unga turli xil ta'riflar berishga ulgurganlar. M.Skriven “shakllantiruvchi (joriy) baholash”ni summativ (yakuniy, ta'kidlovchi) baholashga qarshi qo'yadi. Uning fikricha, shakllantiruvchi baholash ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, ulardan maktab amaliyotida ta'lim sifatini oshirish uchun foydalanishga xizmat qilishi zarur deb hisoblagan [Scriven, 1967].

B.Blum esa “shakllantiruvchi baholash”ni o'quv maqsadlari taksonomiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, aniq va shaffof o'quv maqsadlarining qo'yilishi ta'lim jarayonining turli bosqichlarida teskari aloqa o'rnatish uchun asos yaratadi deb hisoblagan. Ushbu oraliq natijalar tizimli ravishda o'lchab turilishi va har tomonlama tahlil qilinishi zarurligini ta'kidlab o'tgan [Bloom, 1968].

Ikki minginchi yillarga kelib umumiy o'rta va oliy ta'limda amaliy yo'naltirilgan, ya'ni kompetensiyaviy modelga asoslangan yondashuvning joriy etilishi bilan bog'liq ravishda shakllantiruvchi baholash texnologiyasi o'quvchilarda o'quv motivatsiyasini oshirish vositasi sifatida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga egaligi aniqlangan: baholashning uzluksizligi, teskari aloqaning mavjudligi, mezonlilik, maqsadlarning oldindan rejalashtirilishi, prognostik yo'nalganlik, individual natijalarga qaratilganlik va h.k.[Shapovalova, 2019].

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda shakllantiruvchi baholash texnologiyasi “o'qish uchun baholash” (assessment for learning) [Black, 2009; Kuznesova, 2017]; “shakllantiruvchi baholash deganda o'qitish davomida baholash tushunilib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, qadriyatli ustanovkalari, shuningdek, kommunikativ ko'nikmalari tahlil qilinib, ularning yutuq va kamchiliklari haqida teskari aloqa o'rnatiladi” [Boysova, 2014: 171].

Shakllantiruvchi baholashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri baholash jarayonida na faqat o'qituvchi, balki o'quvchilarning o'zlari ham faol ishtirok etadi; na faqat natija,



balki jarayon, na faqat bilim, ko'nikma va malakalar, balki yutuqlar, qobiliyat va kompetensiyalar baholanadi.

Umumiy o'rta va oliy ta'limda amaliy yo'naltirilgan, ya'ni kompetensiyaviy modelga asoslangan yondashuvning joriy etilishi bilan bog'liq ravishda formativ baholash texnologiyasi o'quvchilarda o'quv motivasiyasini oshirish vositasi sifatida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga egaligi aniqlangan: baholashning uzluksizligi, teskari aloqaning mavjudligi, mezonlilik, maqsadlarning oldindan rejalashtirilishi, prognostik yo'nalganlik, individual natijalarga qaratilganlik va h.k.

#### 1- jadval

Baholash strategiyalari (metodlari)	Baholash metodlari, shakl va texnikalari
Kriterial – mezonli baholash	Nazorat varaqasi, baholash varaqasi, kriterial jadval, shaxsiy kundalik, prezentasiya, klaster va h.k.
Baholashning integral tizimi	Reyting baholash tizimi, portfolio, “bahosiz” baholash (ramzlar, ranglar), baholashning individual metodlari
Baholashning ob'ektivlashtirilgan metodlari	Anketa, so'rovnoma, test, savollar kartochkasi va h.k.
Baholashning sub'ektiv metodlari	Yozma ish (bir daqiqali esse, mini-obzorlar, “fikrni davom ettiring...”, “gapni yakunlang...” kabi topshiriqlar)
Baholashning ko'rgazmali metodlari	Signal beruvchi kartochkalar (“svetofor” usuli), rangli kartochkalar, mental kartalar, “imo-ishoralar” talqini jadvali, “20 sekund” texnikasi va h.k.
Baholashning o'yin va boshqa interfaol metodlari	Vaziyatli va rolly o'yinlar
Raqamli baholash	Raqamli test (Lets test, Learning Apps. org), elektron kundalik va h.k.
O'zaro baholash metodlari	Baholashning guruhviy metodlari, o'zaro baholash strategiyasi (hamkorlik malakalarini baholash varaqasi) va h.k.

Shakllantiruvchi baholash texnologiyasi, an'anaviy baholash metodlaridan farqli ravishda, o'quvchilarning o'zlariga o'zini o'zi baholash imkoniyatini beradi. Baholash natijalarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning yutuq va kamchiliklari aniqlanib, o'qituvchi o'zining va o'quvchilarning keyingi faoliyatiga, ta'lim mazmuni va metodlariga,



vositalariga tuzatishlar kiritishi zarur bo'ladi. M.A.Pinskaya ta'kidlashicha, "ushbu baholashning maqsadi – natijalarni, yutuqlarnigina aniqlash emas, balki o'quvchilar qanday qilib bilim olayotganligini kuzatib borishdir" [Pinskaya, 2010: 46].

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, quyidagi holatlarda baholash shakllantiruvchi xususiyat kasb etadi:

- ✓ baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar o'tilgan materiallar asosida ishlab chiqilgan bo'lsa;
- ✓ topshiriqlar, ularning shakli o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi, sinfda har bir o'quvchining qiyinchiliklarini aniqlash imkonini berishi;
- ✓ o'tkazilgan baholash natijalari o'z vaqtida tuzatishlar kiritish uchun o'quvchi va o'qituvchi uchun ochiq bo'lishi;
- ✓ baholash natijalari ushbu o'quvchining oldingi natijalari bilan taqqoslanishi zarur.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, shakllantiruvchi baholash texnologiyasi na faqat o'quvchilarning ta'lim jarayonida yutuq va kamchiliklari, balki o'qituvchining ish faoliyati sifatini ham ob'ektiv baholash imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir.

Shakllantiruvchi baholash texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning ob'ektiv mezonlarga asoslanganligidir. Mezon – o'lchov birligi, biror-bir narsa yoki jarayonni baholash, belgilash yoki guruhlash uchun asos bo'ladigan belgi hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash kompetensiyasini shakllantiruvchi baholash texnologiyasi asosida takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar mavzulari bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish texnologiyasini amaliy o'zlashtirishlari zarur.

O'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash mezonlari o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilishi lozim.

Maqsadlar:

- ✓ aniq, o'ziga xos bo'lishi, nimaga erishish zarurligi ravshan bo'lishi;
- ✓ maqsadlarning erishilganligi to'g'risida aniq xulosa qilish uchun ularni o'lchash imkoniyati mavjudligi;
- ✓ real bo'lishi;
- ✓ bajarish muddatlari va vositalari aniq ko'rsatilishi zarur .

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, quyidagi holatlarda baholash formativ xususiyat kasb etadi: baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar o'tilgan materiallar asosida ishlab chiqilgan bo'lsa; topshiriqlar, ularning shakli o'quvchilar yoshiga mos bo'lishini, sinfda har bir o'quvchining imkoniyatlarini aniqlash imkonini berishi; o'tkazilgan baholash natijalari o'z vaqtida tuzatishlar kiritish uchun o'quvchi va





o'qituvchi uchun ochiq bo'lishi; baholash natijalari ushbu o'quvchining oldingi natijalari bilan taqqoslangana.

Formativ baholashning asosiy vazifasi o'quv yili uchun belgilangan maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini aniqlashdan iborat. Formativ baholashda o'quv maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan qadamlar aniq belgilanadi. Bu jarayonda o'quvchilar orasida o'z-o'zini baholash va hamkorlik qilishga katta e'tibor qaratiladi va rag'batlantiriladi. Formativ baholash o'quv jarayoni nafaqat yakuniy bosqichda, balki boshlang'ich va o'rta bosqichda qanday o'tayotganiga tashxis qo'yish uchun zarur, va agar ma'lumotlar qoniqarsiz bo'lib chiqsa, olingan ma'lumotlar asosida kerakli ma'lumotlarni va ta'lim faoliyati sifatini oshirish uchun o'zgartirishlarni kiritish mumkin.

Har qanday sinfda ishlatilishi mumkin bo'lgan formativ baholashning turli xil mexanizmlari mavjud. Quyidagilar shular jumlasidan: uyga berilgan vazifalar; dars paytida beriladigan topshiriqlar; dars paytida o'tkaziladigan nazorat ishlari; o'quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish; qaytar aloqani amalga oshirish; o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi; natijaga asoslanib ta'lim jarayoniga o'zgartirish kiritish imkoni. O'z-o'zini baholash bu o'quvchilarning o'zlarini baholashni o'z ichiga olgan diagnostik baholash shakli. Formativ baholash o'quvchi o'zining o'quv natijalarini o'zi baholashga, bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlashga, eng asosiysi oldinga harakatlanish uchun, individual yutuqlarni yaxshilash uchun nima qilish kerakligini aniqlashga yo'naltirilgan. O'quvchilarning individual o'quv natijalarini baholashda formativ baholashni qo'llash ularda mustaqil o'qish kunlikmasini shakllantirishga imkon beradi, shuningdek o'qituvchiga har bir o'quvchining o'qishga ehtiyojini aniqlashda, o'quvchining individual o'quv natijalarini kuzatishda, o'quvchida o'zini o'zi baholash ko'nikmasini rivojlantirishda yordam beradi. Formativ baholash o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi uzluksiz qaytar aloqani ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarda o'qishga motivatsiya paydo bo'lishiga, ularning eng yaxshi natijalarga erishishiga ko'maklashishga, o'quv jarayonini o'z vaqtida tahrirlashga, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga imkon beradi. Bunga birinchi navbatda, dars davomida o'qituvchi va o'quvchi miqdoriy ko'rsatkichga emas, balki o'z ta'limiy faoliyatlarini sifatii tahlil qilishga mo'ljal olish orqali erishiladi.

Shuningdek, o'quvchilar faoliyati natijalarini baholashda summativ baholash metodologiyasidan foydalanish, ya'ni taqqoslash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Taqqoslash usuli- bu yakuniy baholashga kompleks yondashuv, va unda alohida nazorat/sinovlar bo'yicha mutlaq ko'rsatkichlar/baholardan emas, o'quvchilarning turli salmoq/ahamiyatga ega bir necha ishlari yoki og'zaki javoblari orasidagi ko'plab nisbiy ko'rsatkichlar/baholardan foydalaniladi, bunday usuldan ko'pincha choraklik, yillik baholarni chiqarishda foydalaniladi. Ushbu yondashuvda nazorat materiallari/sinov resurslaridan samarali foydalanish natijasida aniq va xolis



ko'rsatkichlar/xulosalarga olib keladi, ko'rsatkichlar bazasi esa doimiy ravishda kengayib boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги «Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ 4623-сон Қарори
2. Moeed A. (2015) Theorizing Formative Assessment: Time for a Change in Thinking. The Educational Forum. Vol. 79, No 2, P. 180–189.
3. Newton P. E. (2007) Clarifying the purposes of educational assessment. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. Vol. 14, No 2, P. 149–170.
4. Bennett R. E. (2011) Formative assessment: a critical review. Assessment in Education: Principles, Policy and Practice. Vol. 18, No 1, P. 5–25.
5. Pardayev, S. M. (2023). POSSIBILITIES OF USING DIGITAL PLATFORMS FOR ASSESSING INDIVIDUAL EDUCATIONAL ACHIEVEMENTS OF STUDENTS. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, 3(10).
6. Pardayev, S. (2024). MAKTABLARDA O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL O'QUV NATIJALARINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Scientific and Applied Research*, 1(3), 45-48.
7. Pardayev Sherzod Mamasharipovich. (2023). O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL O'QUV NATIJALARINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9(9), 193–196.
8. Pardayev, S. M. (2023). FORMATIVE ASSESSMENT AS A TOOL FOR MONITORING STUDENTS'INDIVIDUAL LEARNING ACHIEVEMENTS AT SCHOOL. *Thematics Journal of Education*, 8(Q1).
9. Pardayev, S. M., & Sindarov, S. K. (2022). LEGAL REGULATION OF ACCESS TO INFORMATION RESOURCES OF E-GOVERNMENT INTERACTIVE SERVICE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 288-299.
10. Sherzod, P. (2022). The role of information resources in the use of e-Government. *Журнал математики и информатики*, 2(1).
11. Pardayev, S. (2023). USE OF PEDAGOGICAL, INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(2).
12. Javlon K., Erali M. STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 136-141.
13. Холматов Д., Мустафоев Э. Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 352-356.
14. Mustafoev E. M., Maydonova Z. N. MOBIL ILOVA YARTISHDA FOYDALANILGAN ONLAYN APP INVERTOR PLATFORMASIDAN FOYDALANISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 6. – С. 23-28.
15. Mustafoev E., Dustbekova M., Kamolova D. MASHINALI O'RGANISH JARAYONIDA ENG YAXSHI QO'SHNIKLAR ALGORITMINI QO'LLASH //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 84-88.

16. Мустафоев Е., Холматов Ж. Brayl matn tasviri sifatini oshirish usullari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 23-27.
17. Sherzod, P. (2022). Xozirgi zamon informatika fanida kompyuter tarmoqlari modulini oqitishda simulyatorlarning orni. *Журнал математики и информатики*, 2(1).